

NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA YANGI INOVATSION METODLARI

Raximova Nargiza Alisherovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan Filiali o'qituvchisi

Sheraliyeva Umidaxon Abdurashit qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan yangi innovatsion metodlar tahlil qilinadi. Nutq rivojlanishi bolalarning umumiy psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ushbu sohada zamonaviy yondashuvlar va metodologiyalarni qo'llash zarurati ortib bormoqda. Maqolada interaktiv o'yinlar, raqamli texnologiyalar, multimediya vositalari va san'at orqali nutqni rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi. Masalan, mobil ilovalar va o'yinlar bolalarning so'z boyligini oshirish va talaffuzini yaxshilashda samarali vosita sifatida taqdim etiladi. Shuningdek, hikoya qilish va rol o'ynash faoliyatlari bolalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Bolalarni nutqini rivojlantirish, nutqiy rivojlanishning darajalari, maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarni nutqini rivojlantirish, dastur bo'yicha ishlash.*

Nutq –murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib, o'sishiga katta tasir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib,atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatorida nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizatori eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi,eshituv analizatorlarining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan

talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina karakterlanib qolmay, balki eng muhimi – o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham karakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Nutqning birlamchi rivojlanmaganligi eshitish, intellekt nuqsonlari va boshqa tashqi omillar ta'siriga bog'liq bo'lmay, o'zining mustaqil kelib chiqishiga ega. Etiopatogenetik nuqtai nazardan nutqi rivojlanmagan bolalar turli-xildagi guruhlarni tashkil etadi. Bazi vaziyatlarda mazkur holat ko'pincha genetik tabiatga ega bo'lgan konstitusional xarakterga ega. Bunday bolalardagi nuqsonning kilinik manzarasini jinsiy psixopatologik belgilarga ayniqsa psixoorganik va boshqa belgilarga ega bo'lmaydi. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi turli darajalarda namoyon bo'ladi. Nutqiy rivojlanishning 1-darajasi umum qo'llaniladigan nutqning mavjud emasligi, jumlaviy nutqning (nutqsiz bolalar) mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Mazkur darajadagi bolalar muloqot uchun sodd so'zlardan, tovushlarga bo'lgan taqlid maishiy ma'nodagi mazmun ot va fe'llardan, sodd gap bo'laklaridan foydalanib, ularning tovush tarkibi noaniq va turg'un emas. Bola o'z (bayoni)ni mimika va imo-ishora bilan mustahkamlaydi. Mazkur bolalar uchun muloqot jarayonida nutqiy izlanishga bo'lgan katta tashabbuskorlik va o'z nutqiga egabo'lgan tanqidiy munosabat karakter.

Nutqiy rivojlanishning 2-darajasida imo-ishora bilan sodd so'zlardan tashqari buzilgan bo'lsada biroq doimiy umumiy qo'llaniladigan so'zlar paydo bo'ladi. Bir vaqtning o'zida ba'zi grammatik shakllar farqlana boradi. Biroq mazkur jarayon turg'un bo'lmagan karakterga ega bo'lib, nutqning qo'pol rivojlanmaganligi mazkur bolalarda yorqin ifodalanadi. Maxsus korreksion ta'lim ta'sirida bolalar nutqiy rivojlanishning yangi 3-darasiga o'tadilar. Mazkur daraja leksik–grammatik va fonetik-fonematik rivojlanmaganlik elementlariga ega bo'lgan keng jumlati nutqning mavjudligi bilan karakterlanadi, bu esa bolalarning atrofdagilar bilan nutqiy muloqotni kengaytirish imkonini beradi. Maktabgacha

yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturida belgilangan bolalarga ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuvning muhim qismi sanaladi. 6-7 yoshli bolaning umumiy muhim kompetentsiyalari sifatida birinchi navbatda, kommunikativ kompetentsiya, ya’ni muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko’nikmasini shakllantirish belgilangan. Demak, tarbiyalanuvchilarning o’yin, bilish va ijtimoiy kompetentsiyasi qatorida muloqot kompetentsiyasi asosiy o’rinni egallaydi. Shunday ekan, MTTda har bir ta’limiy faoliyat mazmunida bolaning nutqini o’stirish va muloqotchanlik ko’nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yangi bilimlarni o’yinlar va didaktik vositalar asosida o’zlashtirganida samaradorlik yuqori bo’ladi. Ya’ni badiiy adabiyotni oddiy o’qib berishdan ko’ra innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo’llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta’minlaydi, tezlashtiradi va shu bilan ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Bolalar nutqini rivojlantirish bo’yicha yurtimiz va MDH davlatlari pedagoglari qator izlanishlar olib borishganki, xususan, R. Inog’omova, L. Mo’minova, V. Gerbova, M. Konin, G. Lyamina, O. Ushakovalarning pedagogik xazinasidan foydalanib MTTda nutq o’stirish ishlarini mazmunli tashkil etish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosini o’yinli texnologiyalar tashkil qiladi. Til qobiliyatlarini shakllantirish, bir tomondan, nerv-psixologik mexanizmlarining yetilganligi bilan, o’zga tomondan esa, ijtimoiy ehtiyoj lar bilan bog’liq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni o’rganishda nutqini rivojlantirish uchun nazarda tutish lozim bo’lgan so’zlami mavzu jihatidan guruhlariga quyidagicha bo’lish mumkin: - otanalar, qarindosh-urug’lar, tengdoshlar bilan bog’liq »o’zlar; - maishiy predmetlar, o’yinchoqlami anglatadigan so’zlar; - bola yashab turgan joydagi predmetlar va boshqa narsalami anglatadigan so’zlar; - hovli, ko’cha, xiyobon, bog’, tomorqadagi narsa-predmetlami anglatadigan so’zlar; - hayvonot olami, qushlar, sudralib yuruvchilar, hasharotlami anglatadigan so’zlar; - jonsiz tabiat obyektlarini anglatadigan so’zlar; - inson kasb faoliyatining har xil turlari (kasbi,

ixtisasi, ish turlari va hokazo)ni anglatadigan soʻzlar; - buyumlar, moslamalar, asbob-uskunalar, mashinalar, materiallar va hokazolami anglatuvchi soʻzlar; - pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tarix (axloq, maʼnaviyat, qadriyat) kabilar bilan bogʻliq soʻzlar; - ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gonzalez, A., & O'Connor, M. (2020). Innovative Approaches to Speech Development in Children with Delayed Speech. *Journal of Speech and Language Pathology*, 15(2), 45-60.
2. Smith, J. R., & Lee, K. (2021). Technology-Enhanced Language Learning for Children with Speech Delays. *International Journal of Language and Communication Disorders*, 56(4), 789-802.
3. Brown, T., & Williams, S. (2022). Play-Based Interventions for Speech Development: A Review of Current Practices. *Child Language Teaching and Therapy*, 38(1), 23-37.
4. Miller, L. A., & Thompson, R. (2023). Using Augmented Reality to Support Language Acquisition in Children with Delayed Speech. *Journal of Educational Technology & Society*, 26(3), 112-125.
5. Johnson, P., & Davis, H. (2023). Multisensory Approaches to Speech Therapy: Enhancing Communication Skills in Young Children. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 64(5), 567-580.
6. Nguyen, T., & Patel, R. (2024). The Role of Parental Involvement in Speech Development: Innovative Strategies for Engagement. *Journal of Family Studies*, 30(2), 150-165.